



SHAVKAT RAHMON SHE'RLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sharof Rashodov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish

metodikasi kafedrası assitenti

Yakubova Safiya Hamdamovna .

E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Tel: +998889300021

Isaqova Saboxat Bo'riyevna

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'TVA yo'nalishi 1- bosqich talabasi

isoqovabduhakim799@gmail.com

Tel: +998771191104

Annotatsiya: Ushbu ishda o'zbek she'riyatining eng yorqin vakillaridan biri bo'lgan Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga va shoir uslubining badiiy xususiyatlari, poetik tafakkuri va mavzular rang-barangligi yoritib berishga bag'ishlanadi. Shoir she'rlarida milliy ruh, insoniy tuyg'ular va vatanparvarlik g'oyalari chuqur ifoda etilgan. Uning asarlarida ramziy obrazlar, metaforik ifodalar va ruhiy kechinmalar uyg'unlashgan. Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xosligi shundaki, u so'z orqali inson qalbining eng nozik pardalariga ta'sir o'tkazadi, she'rlari kishining tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: poetik tafakkur, vatanparvarlik g'oyalari, ramziy obrazlar, metaforik ifodalar, badiiy detal, sherning tematikasi

Distinctive Features of Shavkat Rahmon's Poetry



Annotation: This work is dedicated to studying the distinctive features of Shavkat Rahmon's poetry, one of the brightest representatives of modern Uzbek literature. It explores the artistic characteristics of the poet's style, his poetic thinking, and the diversity of his themes. Shavkat Rahmon's poems deeply express national spirit, human emotions, and patriotic ideas. His works harmoniously combine symbolic imagery, metaphoric expressions, and spiritual experiences. The uniqueness of his creativity lies in his ability to touch the most delicate strings of the human soul through words; his poems stand out for their emotional impact on the reader.

Keywords: poetic thinking, patriotic ideas, symbolic images, metaphorical expressions, artistic detail, theme of the poem

Особенности поэзии Шавката Рахмона

Аннотация: Данная работа посвящена изучению отличительных особенностей поэзии Шавката Рахмона одного из ярчайших представителей современной узбекской литературы. В ней рассматриваются художественные особенности стиля поэта, его поэтическое мышление и тематическое многообразие творчества. Стихи Шавката Рахмона глубоко выражают национальный дух, человеческие чувства и патриотические идеи. Его произведения гармонично сочетают символические образы, метафорические выражения и духовные переживания. Уникальность его творчества заключается в способности посредством слова затронуть самые тонкие струны человеческой души; его поэзия отличается сильным эмоциональным воздействием на читателя.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: поэтическое мышление, патриотические идеи, символические образы, метафорические выражения, художественная деталь, тематика стихотворения.



KIRISH: O'zbek adabiyotining zamonaviy bosqichida Shavkat Rahmon nomi o'ziga xos badiiy tafakkur, chuqur ma'no va yangicha poetik qarashlar bilan ajralib turadi. Shoir o'z ijodida inson ruhiyatining eng nozik qirralarini, zamon ruhi va hayot haqiqatini teran his etgan holda ifodalaydi. Shavkat Rahmon qalami o'tkir, badiiy tili esa boy va ta'sirchan bo'lib, u hajman qisqa, ammo mazmunan chuqur misralar orqali katta ma'nolarni yoritishga muvaffaq bo'lgan zabardast ijodkordir. Uning she'rlarida milliylik va umuminsoniylik, ramziy ifoda va falsafiy mushohada, ruhiy kechinma va hayot mohiyati o'zaro uyg'unlashgan. Shoirning poetik uslubi so'zning ichki ohangini, badiiy qatlamini va ma'naviy teranligini mujassam etishi bilan ajralib turadi. Shu bois, Shavkat Rahmon she'riyatini o'rganish o'zbek adabiy tafakkurining yangi bosqichlarini anglash va badiiy tafakkur evolyutsiyasini tahlil etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. [2.2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Shavkat Rahmonning hayot va ijod yo'llari haqida ko'plab shaxslar adabiy va ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Bulardan Qutblika Rahimboyeva "Shavkat Rahmon haqida xotiralar" kitobida adib haqida o'z qarashlarini bayon qilgan. Shavkat Rahmon haqida xotiralar shunchalik samimiy yozilganki shoir manaviy qiyofasi shu qadar tiniq anglashiladi. O'qiyotgan shaxs ko'rib turganday, shoirni shoirni tinglayotganday xissiyotni tuyadi. [3]

Shavkat Rahmonning "She'rlar", "Adabiyot oralab" she'rlar to'plamida yozuvchining yillar davomida yozgan har biri o'ziga xos bo'lgan she'rlarini ko'rishimiz mumkin. [1.2]

Shoirning "Yurak qirralari sh'eri to'plamida nozik ohanglar orqali inson va tabiatning badiiy birligini ta'kidlaydi. Bundan ko'rishimiz mumkinki inson va tabiatga nisbatan har qanday zo'ravonlikni qoralaydi. [4]



Aliyeva Orzugul "Abdulla Oripov va SHavkat Rahmon ijodining o'ziga xos juhatlari" maqolasida SHavkat Rahmon she'rlarida inson va tabiat uyg'unligini ochib berganligini ko'rishimiz mumki. Shu bilan birgalikda shoirning "Turkiylar" she'rine ba'zi qismlarini sharhlab beradi. [7]

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda asosan badiiy tahlil, falsafiy mushohada hamda adabiy manbalarni tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Birinchidan, "Turkiylar" she'rine g'oyaviy asoslarini aniqlashda badiiy matn tahlili metodi asos qilib olindi. Bu usul she'rning ichki tuzilmasi, tasvir vositalari, poetik obrazlar tizimi va ularning mazmuniy uyg'unligini ochib berishga xizmat qildi.

Ikkinchidan, falsafiy yondashuv orqali asarda ilgari surilgan insonparvarlik, yaratuvchanlik va tafakkur qudrati g'oyalari tahlil qilindi. Shoirning falsafiy qarashlari umumiy insoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ruhiy komillik bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Uchinchidan, qiyosiy-tahliliy metod yordamida "Turkiylar" she'ri mazmun jihatdan o'z davridagi falsafiy-lirik asarlar bilan solishtirilib, ularning o'zaro aloqadorlik jihatlari aniqlashtirildi. Shu orqali Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xos uslubi va falsafiy mushohada chuqurligi yoritildi.

Tahlil va natijalar: Shavkat Rahmon she'riyatida o'ziga xos xususiyatlari, shoir she'rlarining mavzu va muammo doirasi badiiy detalning o'zbek she'riyatida keng o'rin egallashiga va shakllanishiga qo'shgan hissasi, ayniqsa badiiy detalga sherning tematikasiga ko'ra murojaat etishi, shoirning bu borada alohida uslubiy qirralarning oydinlashishi kabi qator masalalarga tavsif va tahlil asosida qoraladi. Shavkat Rahmonning "Turkiylar" sherida bularni barchasini ko'rishimiz mumkin.

Qilichin tashladi beklar, nihoyat,



bosildi tulporlar, tig'lar suroni,
urhoqa o'rgangan tillarda oyat,
turkiylar tanidi komil Xudoni.

Qilichlar zangladi...

falokat hushyor,
turkiylar quvvatin berdi yelarga.

Hiylagar do'stlardan yaqinlashdi yor,
komillik qidirdi jasur erlarga. [1.7.]

Shavkat Rahmonning "Turkiylar" she'ri uning ijodiga xos poetik tafakkur, falsafiy mushohada va milliy ruh uyg'unligining yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumotda ta'kidlanganidek, shoir she'riyatining asosiy xususiyati badiiy detal orqali katta ma'naviy mazmunni ifodalash, ramziy obrazlardan foydalanish va milliy ruhni umuminsoniy g'oyalar bilan uyg'unlashtirishdir. Ushbu she'rda ana shu jihatlar to'liq namoyon bo'ladi. "Qilichin tashladi beklar, nihoyat, bosildi tulporlar, tig'lar suroni..." misralari orqali tarixiy jarayon ramziy shaklda yoritilgan. Qilich, tulpor, tig'lar singari badiiy detallar jang, kuch va o'tgan davr shon-shuhratini anglatadi. Ammo bu jangovar obrazlarning to'xtashi ruhiy uyg'unish va komillikka yuzlanishni bildiradi. Shoir "urhoqa o'rgangan tillarda oyat" deya, turkiy xalqlarning ma'naviy o'zgarishiga, islomiyat va komil Xudoni tanish jarayoniga ishora qiladi. Bu orqali u tarixiy haqiqatni falsafiy mushohada darajasiga ko'taradi "Qilichlar zangladi... falokat hushyor, turkiylar quvvatin berdi yelarga." misralarida ramzli ifoda yanada kuchayadi. Zanglagan qilich urushning yakuni, zo'ravonlikdan voz kechish belgisi; yelarga berilgan quvvat esa erkinlik, ruhiy yuksalish va tabiat bilan uyg'unlik ramzidir. Shoir bu detallar orqali turkiy xalq ruhining o'zgarishini, ruhiy komillikka intilishni tasvirlaydi.



“Hiylagar do’stlardan yaqinlashdi yor, komillik qidirdi jasur erlarga.” misralarida esa insoniy qadriyatlar, sadoqat, do’stlik va komillik g’oyasi ilgari suriladi. Bu joyda Shavkat Rahmon o’ziga xos uslubiy mahoratini namoyon etadi u so’z orqali inson qalbining nozik pardalariga ta’sir o’tkazadi, obraz va ma’nolarni ichki mushohada orqali beradi. Shunday qilib “Turkiylar” she’ri orqali shoir o’z xalqining o’tgan yo’lini, ruhiy yangilanishini va komillikka intilishini poetik obrazlarda ifoda etadi. Bu jihat bilan asar Shavkat Rahmon she’riyati uchun xos uslubiy qirralarni ma’naviy teranlik, ramziy ifoda va ruhiy kechinmalar uyg’unligini yoritib beradi.

Ilvasin yigitlar,
bobir yigitlar,
sajdaga bosh qo’ydi yovga ters qarab,
g’ullarni kemirib yig’iladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaralab.
Turkda bosh qolmadi...
qolmadi dovlar,
xotin-xalaj qoldi motam ko’tarib,
“Bizga tik qarama” buyurdi yovlar,
yovlarga ters qarab yashadi bari. [1.7]

Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she’rining bu bandlarida ham shunday poetik mahorat namoyon bo’ladi. “Ilvasin yigitlar, bobir yigitlar, sajdaga bosh qo’ydi yovga ters qarab...” Bu misralarda “ilvasin” va “bobir” (botir) yigitlar obrazlari turkiy xalqlarning mardligi, jasorati va erkparvarlik timsolidir. “Sajdaga bosh qo’ydi yovga ters qarab” ifodasi esa mag’lubiyat fonida ham ma’naviy g’alabani bildiradi ular yovga emas, Xudoga sajda qilgan. Shoir bu



orqali turkiy xalqning ruhiy bukilmasligi va imoniga sadoqatini ko'rsatadi. Bu, ma'lumotda aytilganidek, Shavkat Rahmon ijodining ma'naviy teranligi va ruhiy kechinmalarni badiiylashtira olish qobiliyatining yorqin namunasidir. "G'ullarni kemirib yig'iladi itlar, buyuk boshni kesdi qilich yaralab." Bu joyda fojeaviy detal itlarning yig'ilishi va kesilgan "buyuk bosh" turkiy millatning buyuk yo'l boshchisi va shon-sharafiging yo'qolishini ramziy tarzda aks ettiradi. Shavkat Rahmon bunday og'riqli manzarani tashqi voqelik sifatida emas, balki xalq ruhining yarasi sifatida ko'rsatadi. Bu shoirning so'z orqali ruhiy og'riqni ifoda etishdagi badiiy qudratini namoyon etadi. "Turkda bosh qolmadi do'vlar, xotin-xalaj qoldi motam ko'tarib... Bu misralar tarixiy fojia va milliy izzatining ifodasidir. "Bosh qolmadi" iborasi ramziy ma'noda rahbarsizlik, birligining yo'qolishi, millat tanazzulini anglatadi. [7.3] Ammo ayni paytda bu satrlarda umidsizlik emas, og'riqli o'zini anglash kayfiyati seziladi. Shoir ma'lumotda ta'kidlanganidek, tarixiy haqiqatni falsafiy mushohada darajasiga ko'taradi u voqeani emas, ruhni tahlil qiladi. "Bizga tik qarama" buyurdi yovlar, yovlarga ters qarab yashadi bari." Bu misralarda qarama-qarshilik ramzi chuqur falsafiy ma'no kasb etadi. Turkiylar mag'lub b'lsa-da, ruhiy mustaqillikni saqlab qoladi. "Ters qarab yashash" itoatni rad etish, ichki erkinlikni saqlash ramzidir. Demak, shoir she'rda xalqning jasoratini, vijdonini, va eng muhimi, komillikka yo'naltirilgan ruhini ko'rsatgan "Turkiylar" she'rining bu qismi Shavkat Rahmon ijodidagi umuminsoniylik uyg'unligi, ramziy tafakkur, badiiy detalning falsafiy yuklanishini to'liq aks ettiradi. Shoir tarixiy fojiani faqat voqea sifatida emas, inson va millat ruhining sinovi sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, bu she'r o'zbek she'riyatida badiiy tafakkurning yangi bosqichini ifodalaydi va Shavkat Rahmonning so'z orqali qalbgga ta'sir o'tkazish mahoratini yaqqol ko'rsatadi

Talandi samoviy tulpor uyuri,



talandi zarli, zeb-u zabari,
“Ters qarab o’ling” deb yovlar buyurdi,
yovlarga ters qarab jon berdi bari.
Lahadga kirdilar o’zlarin qarg’ab,
qolmadi arabiy,
turkiy xatlari,
“Tug’ingiz, dedi yov, teskari qarab”,
yovlarga ters qarab tug’ildi bari. [1.7]

“Talandi samoviy tulpor uyuri, talandi zarli, zeb-u zabari... ‘Bu satrlar turkiy dunyo qudrati, sivilizatsiyasi va ma’naviy boyliklarining talanishini ifodalaydi. “Samoviy tulpor” ilohiy kuch va orzular ramzi, “zeb-u zabar” esa madaniy boylik, shon-sharaf timsolidir. Shavkat Rahmon bu obrazlar orqali bosqin va vayronagarchilikning ruhiy iztirobini aks ettiradi. U tarixiy fakti emas, ruhiy fojiani tasvirlaydi bu esa uning poetik tafakkurining o’ziga xos jihati. “Ters qarab o’ling, deb yovlar buyurdi, yovlarga ters qarab jon berdi bari. “Bu misralar she’rning markaziy g’oyaviy cho’qqisidir. “Ters qarab jon berish” taslim bo’lmaslik, dushmanga qarshi ruhiy isyon ramzidir. Turkiylar jismonan mag’lub bo’lsa-da, ma’naviy jihatdan yengilmagan. Bu joyda shoir milliylik va umuminsoniylikni uyg’unlashtiradi: insonning sha’ni, e’tiqodi va or-nomusi hech bir kuch bilan sindirilmasligini ifoda etadi. Shu bilan birga, bu obraz shoirning badiiy detal orqali katta falsafiy ma’noni berish mahoratini ko’rsatadi. “Lahadga kirdilar o’zlarin qarg’ab, qolmadi arabiy, turkiy xatlari...” Bu satrlar madaniy merosning yo’qolishi, tildagi izlarning o’chishini bildiradi. “Arabiy, turkiy xatlar” bu yerda ma’naviy ildiz va yozuv madaniyatining timsoli. Bu yo’qotish faqat tarixiy emas, ruhiy va madaniy fojea sifatida ko’rsatilgan. Shoir bu orqali millatning yozuvini yo’qotish



uning ruhini yo'qotish bilan barobar ekanini ta'kidlaydi. "Tug'ingiz, dedi yov, teskari qarab', yovlarga ters qarab tug'ildi bari. "Bu yakuniy satrda qarama-qarshilik ramzi yana takrorlanadi. "Teskari tug' " yengilish belgisi, biroq shoir bu ramzni teskari ma'noda talqin qiladi: turkiylar "yovlarga ters qarab tug'ildi", ya'ni ruhiy jihatdan qayta tug'ildi. Bu yerda shoir fojia ichidan umid, mag'lubiyat ichidan ma'naviy g'alaba topadi. Shavkat Rahmonning o'ziga xosligi ham shunda u og'riqni go'zallikka, fojiani falsafaga aylantira oladi

Tug'ildi

Tug'ildi,

Tug'ildi qullar

qirqda qirilgan- imdodga muhtoj,

yovlarga ters qarab itlarday hurar,

bir-biriga dushman,

bir-biridan koj.

Jo'mardlar qirilgan Turon zaminda

Do'zaxiy tajriba pallasin ko'rdim:

eshak survati bor qay bir qavmda,

qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.

Bu holda buvaklar bo'g'ilib o'lar,

shu Bilol ezilib yig'lar falakda...

O'zlarin yondirar borliqdan to'ng'an

Badaxshon la'liday asli malaklar.



Mo'minlar besh bora Allohni eslar
sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.

O'grilib sal ortga qarayin desa,
boshiga urarlar,

faqat boshiga. [1.7]

Shavkat Rahmonning “Turkiylar” she’rining bu qismi millat ruhining eng quyi nuqtasini, ruhiy qulchilik holatini va ma’naviy inqirozni ifodalovchi manzara sifatida qaraladi. Ushbu band aynan shunday uyg’unlikni o’zida mujassam etadi. “Tug’ildi, tug’ildi, tug’ildi qullar, qiriqda qirilgan imdodga muhtoj, yovlarga ters qarab itlarday hurar, bir-biriga dushman, bir-biridan koj. “Bu misralar ma’naviy qulchilik davrining poetik manzarasi. “Tug’ildi qullar” deganda shoir jismonan emas, ruhiy qul sifatida yashayotgan avlodlarni nazarda tutadi. “Itlarday hurar, bir-biriga dushman” satrlari esa millatning o’zaro adovat va befarqlik girdobida qolganini anglatadi. “Jo’mardlar qirilgan” xalq o’zining mard, halol, pok farzandlaridan ayrilgan; “do’zaxiy tajriba” esa insoniyatning zulm va jaholat bosqichiga tushib qolganini ko’rsatadi. “Eshak survati”, “to’ng’iz kallasi” kabi hayvoniy obrazlar insonning insonlik qiyofasini yo’qotgan holatini ramziy ifodalaydi. Shavkat Rahmon bu orqali axloqiy tanazzul va ma’naviy so’nishni poetik tarzda ochib beradi. “Bu holda buvaklar bo’g’ilib o’lar, shu Bilol ezilib yig’lar falakda... “Bu misralarda shoir islomiy ruh va adolat timsoli Bilol nomini tilga oladi. Bilol ozodlik, imon va sabr ramzi. Ammo endi u ham “falakda yig’layapti” demak, adolat qadsizlanib, e’tiqod iztirobga aylangan. Bu orqali shoir ruhiy og’riq va ilohiy jimjitlikni birlashtiradi. “O’zlarin yondirar borliqdan to’ng’an Badaxshon la’liday asli malaklar. “Bu misrada “Badaxshon la’li” tozalikka, asl zotlikka, iymonga ishora. Shoir “asli malaklar” deganda, ezgu insonlarning o’zini o’zi yoqishi, ya’ni buzuq



dunyodan voz kechishini bildiradi. Bu tasvir ruhiy fojeaning eng yuqori nuqtasidir insonlik yondirilgan, ammo ruh so'nmagan. "Mo'minlar besh bora Allohni eslarsajdaga bosh qo'yib jallod toshiga. O'grilib sal ortga qarayin desa, boshiga urarlar, faqat boshiga. "Bu yakuniy satrlar butun she'ning ma'naviy kulminatsiyasidir. Shoir dindorlik va qullik orasidagi ziddiyatni ochadi: inson sajdada, ammo bu sajdada jallod toshiga. Ya'ni e'tiqod asl mohiyatidan uzilgan, tashqi rasmiyat ichida ruh ezilgan. "O'grilib sal ortga qarayin desa" bu haqiqatni anglash, o'zini tanish, tarixni eslash istagi, lekin "boshiga urish" fikrlovchi ongni yo'q qilish ramzidir

Bormi er yigitlar,

bormi er qizlar,

bormi gul bag'rinda jo'mard nolalar,

bormi bu tufroqda o'zligin izlab,

osmon-u falakka yetgan bolalar.

Bor bo'lsa,

ularga yetkazing qo'ying,

bir boshga bir o'lim demagan emish,

shahiddir o'lmaydi,

bir qarab tuyinq:

Yovga ters qaragan musulmon emas!

Yovga ters qaragan musulmon emas!

Yovga ters qaragan musulmon emas!



Yovga ters qaragan musulmon emas!

Yovga ters qaragan musulmon emas! [1.7]

She'ning bu yakuniy bandi Shavkat Rahmon ijodining ruhiy cho'qqisi bo'lib, unda umidsizlikdan umidga, zulmatdan ruhiy uyg'onishga o'tish jarayoni aks etadi. Bu band ana shu xususiyatlarning to'liq mujassamidir. Shoirning murojaat shaklidagi bu misralari millatga ruhiy da'vatdir. "Bormi er yigitlar, bormi er qizlar" degan so'rov yo'qotilgan jasorat va e'tiqodni qayta izlash ramzi. "O'zligin izlab osmon-u falakka yetgan bolalar" komillikka, ma'naviy ozodlikka intilgan yangi avlod timsolidir. Bu bandda shoir ruhiy uyg'onish, milliy o'zlikni qayta topish g'oyasini ilgari suradi. "Bir boshga bir o'lim demagan" bu xalqning matonati va qat'iyatini bildiradi; "shahiddir o'lmaydi" esa ma'naviy abadiyat ramzidir. Shavkat Rahmon bu orqali ruhiy ozodlik o'limdan ham ustun degan g'oyani ilgari suradi. "Yovga ters qaragan musulmon emas! "Bu satrning besh marta takrorlanishi ruhiy uyg'onishning cho'qqisi, shoirning ichki hayqirig'idir. Bu yerda "musulmon" so'zi faqat diniy emas, insoniy, axloqiy va milliy komillik mezoni sifatida ishlatilgan. "Yovga ters qaragan musulmn emas" esa butun she'r davomida uchraydigan asosiy ramzdir: u mag'lubiyat, qullik, befarqlik va ruhiy sustlikni anglatadi. Demak, shoirning bu da'vati xalqni o'z or-nomusini, e'tiqodini, erkini qayta tanishga chaqiriqdir. Bu hayqiriq orqali Shavkat Rahmon ma'naviy uyg'onishni ifoda etadi: haqiqiy musulmon haqiqiy inson, u yov (zulm, jaholat, befarqlik) qarshisida egilmaydi. Shoir o'z avlodini mag'lubiyatdan saboq olish, o'zligini tanish va oriyatni saqlashga da'vat etadi. Takrorlanuvchi hayqiriq "Yovga ters qaragan musulmon emas!" bu milliy xotiraning, ruhiy qarashning va iymonning ramziy yangilanishidir.

Xulosa va takliflar: Lirik turga mansub asarlarda shaxsning ichki tuyg'ulari, hissiyoti, ruhiy kechinmalari, sezimlari asosiy o'rinda bo'ladi. Bu turdagi asarlarda hayotda ro'y bergan voqealar emas, balki ular tufayli



insonda paydo bo'ladigan tuyg'ular tasviri muhim hisoblanadi. Odamning tuyg'ulari o'z-o'zidan bezovta bo'lavermaydi. Kishining ruhiy dunyosini muvozanatdan chiqaradigan ijtimoiy-hayotiy sabab bo'lgandagina hissiyotlar harakatga keladi. Shavkat Rahmon she'rlari kishining tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan ajralib turadi. Kelgusida bu hisobot Shavkat Rahmon ijodini o'rganishga bel bog'lagan yoshlar uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT:

1. Shavkat Rahmon. SHe'rlar-Toshkent: Mutola.2024.8 b
2. SHavkat Rahmon.Adabiyot oralab-Toshkent: Mutoaa. 2024.337 b
- 3Uch kitob & Qutlibika. Shavkat Rahmon haqida xotiralar” – Qutlibeka Rahimboyeva.kh-davron.uz.
4. SHavkat Rahmon.Yurak qirralari: She'rlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiot va san'at ashriyoti.1981.108 b
5. Qurbonov D, Mamajonov Z, SHeraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati T: Akademnashr, 2010-.245. b
- 6.Хотамов Н, Саримсоков Б. Адабийотшunoslik terminlarining ruscha-uzbekcha izoxli lug'ati. - Toshkent,1979.-279 b.
- 7.Aliyeva, O. (2025). Abdulla Oripov va Shavkat Rahmon ijodining o'ziga xos jihatlari. Международный журнал научных исследователей, 10(1).